

Azizova Dinara Rahmiddin qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

OTA-ONA VA FARZAND O'RTASIDAGI EMOTSIONAL MUNOSABATLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda oila va uning a'zolarining o'zaro munosabatlari va bu munosabatlarning to'g'ri shakllanishiga oid fikrlar keltirilgan. Munosabatlarni yuzaga chiqaradigan insonning hissiyotining namoyon etuvchi emotsional sohaga oid fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar. Emotsiya, kayfiyat, ehtiros, affekt, jazava, emotsional holat, faoliyat, shaxs, reaksiya, intensivlik, regulyator, darg'azablik, rashk, jaxl, aql-idrok, amneziya, oila, insonparvarlik, halollik, poklik, mehnatsevarlik, qadriyat

Kirish. Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoliyatining natijasi yoki mahsuli bo'lib hisoblanadi. Emotsional holatlarning yuzaga kelishiga tabiatda va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, munosabatlar, aloqalar, taassurotlar asosiy sababchidir. O'zgarishlar o'z navbatida, birinchidan, shaxs shayoti va faoliyatining jadallashi yoki pasayishiga, ikkinchidan, insondagi ayrim ehtiyojlarning paydo bo'lishiga yoki yo'qolishiga, uchinchidan, odam ichki organlari funksional holatlarining beqarorlashuviga olib keladi.

Odam va hayvonlarning tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'siriga nisbatan subyektiv reaksiyalari emotsional qoniqish yoki qoniqmaslik, quvonch, qo'rquv va boshqalar shakllarda namoyon bo'ladi.

Emotsiyalarning organizm faoliyatidagi fiziologik roli benihoya kattadir. Emotsiyalar organizmni biror faoliyatiga tayyorlashda ishtirok etadi. Hayvonlarda emotsiyalarning funksiyasi faqat baholovchi – bir butun funksiya bo'lib, harakat qilishga undovchi faoliyat bilan bevosita bog'liqdir. Oliy hayvonlarda emotsiyalar yuksak darajada tabaqalashuv va murakkablikka erishishi hamda ularga tashqi va ichki muhitning organizmga xar qanday ta'sirini baholash va adekvat reaksiya uyg'otishni ta'minlaydi.

Emotsional xolatlarda kishining rangi oqarib ketadi yoki qizaradi, muskullarning taxi- yoki bradikardiyasi, gipo- yoki gipertoniyasi, ter, yosh, yog' bezlari va boshqa bezlarning faoliyati o'zgaradi. Qo'rqib ketgan kishining ko'zlari katta-katta ochilib, ko'z qorachig'i kengayadi, qon bosimi ko'tariladi. Bazan "tovuq eti" paydo bo'ladi, sochlari tik bo'ladi va xokazo, ya'ni xayajonlanishda tomir – vegetativ va endokrin o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Asosan salbiy xarakterdagi juda kuchli kechinmalar bilan paydo bo'ladigan nevrozlarda vegetativ-tomir buzulishlari sodir bo'ladi.

U yoki bu his-tuyg'uning uzoq davom etishi va ifodalanishi darajasiga qarab quyidagi emotsiyalar: kayfiyat, extiros, affekt mavjud bo'ladi. Kayfiyat - uzoq davom etadigan emotsional holat bo'lib, u ko'proq intensivlikka erishmaydi va yetarli darajadagi uzoq davr mobaynida muhim tebranishlarga ega bo'lmaydi. Ijobiy yoki salbiy kayfiyatning davom etishi bir necha soatdan bir necha kungacha va hatto haftagacha davom etadi. Kayfiyat faoliyatining tegishli darajasini ta'minlaydi. Agar emotsional faoliyatda nisbatan barqaror kayfiyatni ta'minlab turadigan muvozanatlashtiruvchi regulyator bo'lmaganda edi, u holda odam to'xtovsiz ravishda doimo paydo bo'lib turadigan emotsiyalar va his- tuyg'ular og'ushida bo'lardi hamda samarali faoliyatga qobil bo'lmasdi. Bunday hollar kasallik xolatida sodir bo'ladi.

Affekt (jazava) - bu nihoyatda aniq ifodalangan, lekin qisqa davom etadigan emotsiya, to'satdan paydo bo'ladigan kuchli ruhiy hayajonlanish. Affekt shunday bir holatki, unda qisqa vaqt ichida paydo bo'ladigan his-hayajonlar aql-idrokning rahbarlik ta'siriga xuddi tutqich bermaganday bo'ladi. Darg'azablik, rashk, jaxl, quvonch jazavasi va boshqa jazavalar bo'ladi. Jazava odatda shiddatli xarakatlantiruvchi reaksiya bilan birga bo'ladi. Aql-idrok nazorati ostida bo'ladigan jazava fiziologik jazava nomini olgan. Undan farqli o'laroq, bir qator xastalik holatlarida patologik jazava ham kuzatiladi. Patologik jazava holatida bo'lgan kishi o'z xatti-harakatlarini boshqarish, o'z

qilmishlari haqida o'ziga hisob berish qobiliyatini yo'qotadi va jazava vaqtida nima qilganligini bilmaydi(amneziya). U odam o'ldirishgacha jinoyat sodir qilishi mumkinki, bu xolat uni o'z-o'zini o'ldirishgacha olib boradi. Patologik jazava psixopatiya, epilepsiya, bosh miyaning organik shikastlanishidan azob chekuvchi shaxslarda uchraydi.

Asosiy qism. Oila – ta'lim va tarbiya maskani bo'lib, dunyoga kelgan farzand oilada axloq-odob qoidalarini, insonparvarlik, halollik, poklik, mehnatsevarlik, kabi qadriyatlarni o'rganadi. Shuning ushun oila davlatning asosiy e'tibor markazidir.

«Oila – bu bir kunlik, bir yillik emas, balki bir umrlik makondirki, bu makonda har kun, har soatda qanchadan-qancha voqea hodisalar, yangidan-yangi tashvishu quvonchlar sodir bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev buyuk allomalarning ushbu fikrini keltirib o'tdilar: «Bola ota-ona qo'lida bir-omonatdir». Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi, haqiqatan ham, juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas. Darhaqiqat, farzandga beriladigan tarbiya dastlab oila muhitida bajariladigan eng asosiy vazifadir. Farzandlar o'z uylarida kuzatgan ma'naviy muhitdan nusxa oladilar». Bizning fikrimizcha ham ota-ona farzandlar tarbiyasi bilan doimiy ravishda qiziqib, uning xatti-xarakatlari bilan o'rtoqlashib, aloqalarni o'rnatib borishi ijtimoiy muhitdagi ijobiy munosabatlarga olib keladi.

Ota-onalik oliy baxt va shu bilan birga ulkan mas'uliyat hamdir. Farzandni aziz ne'mat sifatida qabul qilib, unga chiroyli tarbiya berish o'ziga yarasha bilim va qunt talab qiladi.

Bolada tarafkashlikni uyg'otmaslik uchun ikkisi bir to'xtamga kela olishi kerak. Chunki bola biror ishni qilayotganda agar bu ishni qilsam, dadam qarshi tursayam, onam tarafimni oladi, degan tushuncha bilan ulg'ayadi yoki teskarisi bo'lishi ham mumkin. Shu sababli ota-onaning fikri bir nuqtaga kelib, hamfikir bo'la olishi kerak. Ota-onaning hamfikrligi – juda katta yutuq. Gap ruxsat berish yoki taqiqda emas, muhimi – ma'lum fikrni o'zaro hamjihat bo'lib bir-biriga uqtira olishda. Agar ona otaga bo'ysunmasa yoki ota kerak paytda onani qo'llab-quvvatlamasa, u yerda hech qanday tarbiya usuli foyda bermaydi.

Ota-onaning hamjihatligi dunyoqarashning yaqinroq bo'lishidir, aslida. Hayotga munosabati yaqinroq bo'lgan insonlar bitta fikrga kelishi osonroq bo'ladi.

Buvi-buvalar bilan birga yashaydigan katta oilalarda odatda bola kim uning tarafini olsa, o'shandan panoh izlaydi va aytganini qildirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham bir uyda yashovchi buvi-buvalar, ota-ona farzand tarbiyasida yakdil fikrga kela olishlari kerak. Ana shunda tarbiyaning ildizi mustahkam bo'ladi.

Biz ota-ona, shaxs sifatida shakllanib bo'ldik. Bizga oddiy ko'ringan narsa bolaga qiyin ekanligini his qilmaymiz. Shuni ichimizdan o'tkazmaymiz. Va bu holatda bola bizdan xafa bo'lishga to'liq haqli. Bola o'ziga bo'lgan ishonchi kamayib ketishi, xafa bo'lish holatlari bo'ladi.

Bolaga nisbatan boshida katta maqsadni qo'ymaylik. To'g'ri, maksimalizm kerak, bolani unga intiltirish zarur. Lekin buni boshidan qilish kerakmas. Buni sekinlik bilan, bosqichma-bosqich o'tkazish lozim.

Xulosa. Oila bu muqaddas dargohki, unda sodir bo'ladigan holatlar butun jamiyat uchun o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Agar oilada ota-onaning farzand uchun bir yoqadan bosh chiqarib hamfikrlikda tarbiyani olib borishmasa, farzand tarbiyasida va o'zaro ota-ona munosabatlarida buzilishlar kelib chiqadi. Bunday holatlar o'zaro munosabatdagi emotsional holatlarning keskinlashuviga o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Oilada ota-onalar farzandlarini yosh davrlar xususiyatlari inobatga olgan holda ularni har tomondan psixik, aqliy, fiziologik, ma'naviy-ma'rifiy, insonparvarlik xislatlarini rivojlantirib, kamol toptirishi zarur. Bu esa o'z navbatida farzand va ota – ona o'rtasida ro'y berishi mumkin bo'lgan turli kelishmovchiliklarni oldini olishga olib keladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzarahimova G. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti.Oilada otaona va farzand munosabatlarining psixologik muammolari // «Oriental Art and Culture» Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020 ISSN 2181-063X. – B.148.
2. Shoumarov G'.B.Oila psixologiyasi.Darslik. – T.: 2011. – B. 14.
3. Salayeva M.S.O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2005. – B. 15.